Sinf					***O'qituvchi***
Sana					***F.I.O***

MAVZU: O'zbek tili va uning taraqqiyoti

DARSNING MAQSADI:

a) ta'limiy: o'quvchilarga milliy til va adabiy til, adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari, ularning ahamiyatiga doir yangi bilim berish;

b) tarbiyaviy: o'quvchilarning ona Vatan, uni tuyish va sevish hissi haqidagi qarashlarini yanada shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo'llay bilishiga erishish.

Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) tayanch kompetensiya(lar): TK2, TK5;

b) fanga oid kompetensiya(lar): FK2

Dars turi: yangi bilim berish

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat

Dars jihozlari: darslik, o'zbek tilining izohli lug'ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	**Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)**	**Ajratiladigan vaqt (reglament)**
1	Tashkiliy qism	daqiqa
2	Ma'naviyat daqiqasi	
3	O'tilgan mavzuni takrorlash	daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish va mashqlar ishlash	daqiqa
5	Mustahkamlash	daqiqa
6	Uyga vazifa berish	daqiqa

DARSNING BORISHI:

Tashkiliy qism: O'quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma'naviyat daqiqasi: O'quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o'quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

O'tilgan mavzuni takrorlash: O'quvchilar bilan quyi sinflarda olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida og'zaki takrorlash – savol-javob o'tkaziladi. Mustaqillik va uning yoshlar hayotidagi o'rni haqida o'quvchilardan individual fikr-mulohazalari so'raladi.

Yangi mavzu bayoni:

Yangi mavzu avvalida o'quvchilar darslikda berilgan "Charhpalak" matnini o`qib chiqadilar, so`ngra unda ifodalangan fikr haqida mulohazalarini bayon qilishadi.

0'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, u yer yuzidagi eng qadimiy va boy tillardan hisoblanadi. Bu tilning ildizlari eramizdan oldingi asrlarga borib taqaladi.0'zbek tilida olamga mashhur ko'plabilmiy va badiiy asarlar yaratilgan.Bugun o'zbek tili mustaqil 0'zbekistonning davlat tili sifatida davlatimiz ramzlari qatorida e 'zoz va ehtiromga sazovordir. 0'zbek tilining taraqqiyoti yurt istiqloli tufayli benihoya jadallashdi.Tildagi o'sish-o'zgarishlarning xolis va birlamchi ko'zgusi uning lug'at boyligidir, jamiyatdagi har qanday o'zgarishlar, eng awalo,aynan xuddi shu boylikda o'z aksini topadi. Yurtimiz hayotida yuz berayotgan iqtisodiy, siyosiy, m adaniy-ma'rifiy yangilanishlar tilimizning lug'at boyligida namoyon bo'lmoqda, bunday o 'zgarishlar tilimizni yangi tushuncha va tasaw urlar bilan, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi yangi so'zlar bilan boyitib bormoqda. Bugun mustaqillik bois paydo bo'layotgan yangi-yangi tushunchalarni ifodalash uchun, aw alo, o 'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari to 'laligicha ishga solinmoqda, xususan, yangi so'zlar yasalmoqda (masalan, dasturchi, ahdnoma,

kafolatnoma; idoralararo, hukumatlararo, davlatlararo; nodavlat, nohukumat notijorat, nomoddiy; mahalliylashtirish, kompyuterlashtirish, modellashtirish kabi); eskirgan deb qaralgan so‘zlar qaytadan tilga olib kirilmoqda (masalan, та ’naviyat, millatparvar, qadriyat, jarroh, matbaa, muallif,munaqqid, tashxis, tijorat kabi); til tabiatiga uyg‘un tarzda ularga yangi m a’nolar yuklanmoqda (masalan, vazir, viloyat, tuman,hokim, zobit kabi); umrini yashab b o ‘lgan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar nofaol zaxiradan joy olmoqda (masalan, kolxoz, sovxoz,ateist kabi). Ilgari salbiylik b o ‘yog‘iga ega b o ‘lgan so‘zlar davr taqozosiga ko‘ra ijobiy bo‘yoq kasb etmoqda (masalan, biznes,biznesmen, millioner, savdogar, fermer, janob, kapital, parlament,firma kabi). Zaruriy holatlarda esa xorijiy tillardan boshqa til vositachiligida emas, balki to ‘g‘ridan to ‘g‘ri va m e’yorga amal qilgan holda so‘zlar o ‘zlashtirilmoqda.Mamlakatimizda tamoman yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumning barpo etilishi, bozor iqtisodi munosabatlarining qaror topishi, yangicha moliya-kredit tizimining paydo bo‘lishi, fan va ta ’lim sohasidagi tub islohotlar, yangi texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, barcha sohalardagi xalqaro aloqalaming mislsiz ko‘lam kasb etishi va boshqa ko‘plab o ‘zgarishlar xorijiy so‘zlaming o ‘zbek tiliga o ‘zlashtirilishiga tabiiy ravishda yo‘l ochdi. Bugun o`zbek tiliga kirib kelgan, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliya-iqtisod, siyosat, ta ’lim va madaniyatga oid o ‘zlashmalar yuzlab emas, balki minglab degan o ‘lchovlar bilan o lch an ad i, ular keng omma nutqidan deyarli joy olib b o ‘ldi (masalan, audiovizual, antiterror, bakalavr, bankomat, barter, birja, brifmg, gimnaziya, diler,investitsiya, investor, internet, kredit, litsey, magistr, monitoring, multimedia, reyting, sertifikat kabi). Ana shu tarzda mustaqiilik davrida tilimizning lug‘at boyligi tarkibida jiddiy taraqqiyot yuz bermoqda.Tilimizdagi mavjud nutqiy uslublar me'yorlarining barqarorlashganligi ham (Siz buni oldingi sinflardan yaxshi bilasiz) o ‘zbek tili taraqqiyotining yuksakligidan dalolat beradi.

Mashqlar bilan ishlash:

O`quvchilar darslikda berilgan “Ona tuproq” she’rni o`quvchilar o‘qishadi,unda ifodalangan g‘oya haqida o`z fikrlarini bildirishadi.Milliy meros, ona tili va unga posbonlik haqidagi mulohazalarini bayon qilishadi.

Sinf darslikda berilgan Alisher Navoiyning so‘z, til borasidagi fikrlarini o`qib chiqadilar. Tilning inson faoliyatidagi o‘mi haqida o`z fikrlarini bildiradilar,asosiy g‘oyani ifodalovchi ixcham matn tuzishga harakat qilishadi.

O`quvchilar 3- mashqda berilgan matnni o'qib,undagi fikrlarga o‘z munosabatingizni bildirishadi.0‘zbek tilining taraqqiyoti haqida bilganlarini yozishadi. So`ngra A. Rustamov tomonidan yozilgan matnni o ‘qishadi va sarlavha qo‘yib, unda ifodalangan fikrni o‘z so‘zlari bilan hikoya qiling. Keyin esa 5-mashqdagi Shoir Dilshod Rajabning «So‘z sehri» she’rini o ‘qing.Unda ifodalangan fikr doirasida bahslashing.

Mustahkamlash: Darsning ushbu qismida o‘quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:«0‘zbek tilining izohli lug‘ati»dan olingan quyidagi so‘zlarning izohlarini esda tuting.Ular ishtirokida gaplar tuzing. Masalan : BRIFING Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan rasmiy nuqtayi nazar bildirish yoki rasmiy xulosalarni qisqacha bayon etish maqsadidagi uchrashuvi.

1. 0 ‘zbek tili qaysi til oilasiga mansub? 2.0‘zbek tilining mamlakatimizdagi maqomi haqida so‘zlang.3.0‘zbek tilining boyligini misollar asosida tushuntirib bering. 4. 0 ‘zbek tilining taraqqiyoti, eng aw alo, uning qaysi sathida namoyon bo‘ladi va nima uchun?
5. 0 ‘zbek tilining dunyodagi nufuzi haqida gapiring.

.

Uyga vazifa: «Haг neni yemak-hayvonning ishi, har neni demak nodonning ishi» hikmati asosida matn tuzing.

O‘TIBDO‘: _____

Ushbu konspektning ***to'liq va fondagi yozuvlarsiz*** variantini olish uchun
+998946281992 telegram raqamiga yoki
@mahmudov24 telegram adresiga xabar yozing

Narxi 20 000 so'm

To'lov FAQAT **click, payme** yoki **paynet*** orqali
BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI! Telefon qilinganda yoki sms yuborilganda javob bermaslik ehtimoli yuqori

Qolgan sinf namunalari va boshqa hujjatlar bilan telegram kanalimiz yoki web saytda tanishingiz mumkin.

Telegram kanal: @uzmaktab
Web sayt: www.hasanboy.uz

* paynet telefon raqamiga emas

hasanboy.uz